

1-mavzu: Inklyuziv ta'limning mazmuni va mohiyati. Inklyuziv ta'limning huquqiy-meyoriy asoslari

Reja:

1. Inklyuziv ta'lim tushunchasi
2. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari
3. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning xalqaro huquqiy asoslari
4. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari

Respublikamizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish va samaradorligini oshirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Alohida ehtiyojli shaxslarga ta'lim berish sifatini oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim jarayonini metodik va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, o'qituvchi, tarbiyachi pedagoglarning bu boradagi malakasini oshirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Inklyuziv ta'lim tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda ko'plab ta'riflar beriladi. Inklyuziv ta'lim - alohida ehtiyoji bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.¹

Inklyuziv ta'lim - bu o'quv jarayonini barcha bolalarning ruhiy, jismoniy, aqliy, madaniy, etnik va boshqa xususiyatlarini hamda maxsus ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda, shu bilan birgalikda, ularni boshqa tengdoshlaridan ajratmagan holda, yashash joylariga yaqin va qulay sharoitlarda tashkil etishdir².

Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Inklyuziv ta'limning vazifalari — barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish; ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

¹ R.Sh.Shomahmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" Uslubiy qo'llanma. Toshkent. "CHASHMA PRINT"-2011.

² I.Y.Madatov "Inklyuziv ta'lim" darslik. Toshkent - "BEST-PUBLISH"-2024.

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash³.

Inklyuziv ta'lim butun dunyoda ham dolzarb masala sifatida ko'tarilgan. Misol uchun, BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi", BMT ning 1975 yilda "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida", BMT ning 1989 yilda "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" si, 1990-yilda Tailandda o'tkazilgan "Ta'lim hamma uchun" Konferensiyasi, 1994-yilda YUNESKO va Ispaniya hamkorlikda Salamanka-Ispaniya umumjahon konferensiyasi kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va tadbirlarni yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning O'zbekistondagi huquqiy asoslari sirasiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2017-yil 1-dekbrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirish" to'g'risidagi qarorlarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" degan satrlari ham inklyuziv ta'lim mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini bilishimiz mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy hujjat hisoblangan Ilk qadam o'quv dasturida ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni(inklyuziv ta'lim) qismida "Davlat o'quv dasturi har bir bolaning ta'lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishdan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o'quv dasturi hisoblanadi.

Davlat o'quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, rivojlanish va muloqotda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan. Inklyuziv

³ F.U.Qodirova, D.A.Po'latova, Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Chiqchiq -2022.

yo‘nalishdagi ta‘lim va tarbiya jarayoni davlat o‘quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning ta‘lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etadigan o‘quv muhiti va o‘qitish usullarini moslashtirish zarur” degan ma‘lumotlar aks etgan.

2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorida:

- rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalar ta‘limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta‘lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta‘lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko‘maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta‘lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

- yengil qurilish konstruksiyalari va zamonaviy energiya samarador materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda, shinamlilik va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq quriladigan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining yangi binolar loyihalarini ishlab chiqish (shu jumladan rivojlanishida jismoniy va ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun to‘siqsiz muhit elementlarini hisobga olgan holda);

- ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishning variativligi hisobiga rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish;

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo‘lgan bolalarga barvaqt kompleks yordam berish tizimini takomillashtirish;

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo‘lgan bolalarda asosiy kompetensiyalarni zaruriy sifat darajasida shakllantirishga erishish, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvini ta‘minlash masalalari o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak inklyuziv ta‘lim - bu har bir bolaning ehtiyojlarini yagona tizim doirasida qondirishga intiladigan yondashuvdir. Inklyuziv ta‘lim uning barcha ishtirokchilariga foyda keltiradi. Bu har bir inson rivojlanish va o‘zini anglash uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lgan bag‘rikeng jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

Inklyuziv ta‘lim har bir inson sifatli ta‘lim olish va muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lgan yanada adolatli va insonparvar jamiyatni yaratishga imkon beradi. Inklyuziv ta‘limni amalga oshirish murakkab, ammo zarur jarayon bo‘lib, barcha ishtirokchilar: muassasalar rahbariyati, o‘qituvchi-pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning o‘zi tomonidan kuch talab etiladi.

Faqatgina birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlaridan qat‘i nazar, uning to‘liq rivojlanishi uchun sharoit yaratish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Inklyuziv ta'lim tushunchasining mohiyati qanday?
2. Inklyuziv ta'limning maqsadi nimadan iborat?
3. Inklyuziv ta'limning qanday vazifalari bor?
4. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning xalqaro huquqiy asoslari haqida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlantirishning qanday huquqiy-me'yoriy asoslari mavjud?
6. Hozirda yurtimizda inklyuziv ta'lim jarayoni haqida qanday xabaringiz bor?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Inklyuziv ta'lim, uning mohiyati, maqsad va vazifalari bo'yicha 5 ta savol tayyorlash.
2. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning xalqaro va O'zbekistondagi me'yoriy-huquqiy asoslari bo'yicha toifalash jadvali tayyorlash.

| № | Inklyuziv ta'limning xalqaro me'yoriy-huquqiy asoslari | Inklyuziv ta'limning O'zbekistondagi me'yoriy-huquqiy asoslari |
|----------|---|---|
| 1. | | |
| 2. | | |
| 3. | | |
| 4. | | |
| 5. | | |

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.Sh.Shomahmudova. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. “CHASHMA PRINT”-2011.
2. I.Y.Madatov “Inklyuziv ta’lim” darslik. Toshkent - “BEST-PUBLISH”-2024
3. F.U.Qodirova, D.A.Po‘latova, Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chiqchiq -2022.
4. Shomurodova, S. (2024). Ona tilida fonetika va fonologiya masalasi. Nordic_Press, 2(0002).
5. Bakhadirova, Z. (2024). IMPROVING THE EFFICIENCY OF HIGH-QUALITY TEACHING OF THE DISCIPLINE" SPEECH SCIENCE" TO STUDENTS IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. Science and innovation, 3(B8), 137-141.
6. Kuldashev, S. (2024). Pedagogik tayyorgarlikdagi nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut: muammolar va yechimlar. Nordic_Press, 3(0003).
7. Muratova, A. (2024). ALISHER NAVOIY IJODIDA YUSUF (AS) OBRAZI TALQINI. Nordic_Press, 3(0003).
8. Islamova, F. (2024). ЁШЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТ ВА СИФАТЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ: ЁШЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТ ВА СИФАТЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ. Nordic_Press, 1(0001).
9. Mirshadmanovna, X. Z., & Qizi, Q. M. M. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIGA PREDMETLARARO INTEGRATSIYA VOSITASIDA METAPREDMET TUSHUNCHALARINI O‘RGATISH. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 658-663.